



MOZIYGA QARAB ISH KO'RMOQ XAYRLIDIR

Zokirjonov D.J

Usmonova O.U

Ilmiy rahbar: **G.Sh.Jo'raeva**

Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Inson umri uzunligi bilan emas, mazmunli hayoti bilan baholanadi, degan iborani ko'p ishlatamiz. Qisqa umri davomida o'zidan ulkan ma'naviy va bebaho meros qoldirgan, millat tafakkurini birlamchi vazifa, deb bilgan hamda asarlari orqali insonlarni hamisha uyg'oq kalb bilan yashashga undagan ijodkor — Abdulla Qodiriy zakosi oldida xalq hamisha bosh egadi.

Darhaqiqat, XX asr birinchi choragida millat ma'naviy xayotida jonbozlik ko'rsatgan adib merosi asrlarga tatigulikdir. U millat tafakkurini oshirish yo'lida «Jadid adabiyoti» asoschilaridan biri bo'lgan, o'zbek adabiyotida romanchilikni boshlab bergan.

Oradan yillar o'tgani sari Abdulla Qodiriydek favqulodda iste'dod egasining betakror poetik tafakkur mevasi bo'lgan “O'tkan kunlar”dek birinchi o'zbek romani qadr topayotgani sir emas.

Romanning tahlil va talqinlari maxsus qodiriyshunoslik sohasini tashkil etadi. Ayni chog'da, asar maydonga kelgan davr, romanning jurnal nusxasi bilan birinchi nashrlar o'rtasidagi matniy farqlarga diqqat qaratish ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Abdulla Qodiriyning romanlariga yuzlab adabiyotshunoslar, minglab muxlislar murojaat qiladi. Badiiy so'zning zilol, toza bulog'idan sirmiradi; yuraklar huzurga to'ladi... Ayni damda, taniqli adiblardan tortib, oddiy insho mashq qiluvchi maktab o'quvchisi ham, zarurat tug'ilganida, bevosita romanning ichkarisiga kirmasdan, shundoq ostonada turib,



adibning hikmatga aylanib ketgan “Moziyga qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar” gapini o‘zlari uchun shior-mayoq qilib oladi. Bu ostonada boshqa hikmatlar ham bor.

Romanning “Yozg‘uchidan” degan oldso‘z-prologi-eskartishi ostiga muhim bir sana bitilgan. Ammo kitob nusxalarida bu sana negadir qayd qilingan emas; matn orasida ozgina o‘zgarish ham bor.

Maqolada berilgan oldso‘z-prologni shu o‘rinda to‘liq ko‘chiramiz: “Yozg‘uchidan Modomiki biz yangi bir davrga oyoq qo‘ydiq, bas biz har bir yo‘sunda ham, shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashmakka majburmiz. Shunga o‘xshash dostonchilik, romonchilik va hikoyachiliklarda ham yangarishg‘a va xalqimizni yangi davrning «Tohir Zuhra»lari, «Chor darvesh»lari, «Farhod Shirin» va «Bahromgo‘r»lari bilan tanishdirmoqg‘a majburmiz. Yozmoqg‘a niyatlanganim ushbu «O‘tkan kunlar», yangi zamon romonchilig‘i bilan tanishmoq yo‘lida kichkina bir tajriba, to‘g‘risi bir havas. Ma’lumki, har bir narsaning ham yangi qabul qilinish — ibtidoiy davrida talay kamchiliklar bilan maydong‘a kelishi, ahllarining etishmaklari ila sekin-sekin tuzalib takomilga yuz tutishi tabiiy bir hol. Mana shuning daldasida, havasimda jasorat etdim; havaskorlik orqasida kechaturgan qusur va xatolardan cho‘chib turmadim.

Moziyga qaytib ish ko‘rish xayrlikdir, deydirlar. SHunga ko‘ra mavzuni moziydan - yaqin o‘tkan kunlardan; tariximizning eng kirlik - qora kunlari bo‘lg‘an «xon zamonlari»dan belguladim.

Abdulla Qodiriy o‘z qahramonlari nomiga jiddiy e‘tibor beradigan yozuvchilar sirasiga kiradi. Ism tanlashda hech kimdan andaza olmaydi; o‘quvchining tasavvuriga obrazlar o‘z ismlari bilan birga muhrlanadi.

Romanning dastlabki sahifalaridayoq, Otabek, Hasanali, Homid, Rahmat, Mirzakarim qutidor, Kumush, O‘zbek oyim, Oftob oyim va boshqa asosiy qahramonlar ismiga mos ravishda ta’riflanadi, tavsiflanadi. “Homid” ismi yolg‘iz aytilganda birov tanimaydi; “Homid xotinboz” desa biladi, anglaydi, eslaydi. Qutidorning ham, Otabek va uning “ma’naviy otasi” Hasanali ismlari ham shunday ko‘rkam, muhtasham, jozibali.



Adib ikki ism davomiga “hoji” martabasini tirkab qo‘yadi: YUsufbek hoji, Akram hoji. Albatta, bu qahramonlar asarda o‘z mavqeiga, ma’naviy darajalariga mos ravishda so‘zlaydilar, sukut saqlaydi va harakat qiladilar. Gohida hoji hokim bilan to‘qnashadi, hamma narsadan ko‘ngli sovub, “dunyo mojarolaridan etak silkib” umr o‘tkazishni g‘animat biladi.

Bugun o‘quvchilar ommasi o‘qiyotgan “O‘tkan kunlar” romanidan sarlavhaga olib chiqilgan savolga javob topilmaydi. Otabekning otasi ma’lum va mashhur – YUsufbek hoji. Ismi jismiga, hojilik martabasiga uyg‘un va xarakterni o‘quvchi yaxshi ko‘rib qoladi; yurak-yurakdan ardoqlaydi.

O‘z qahramonlarini o‘tgan payg‘ambarlar nomi bilan atash – qahramonlarga salobat bag‘ishlashi, ularning toza insonlar toifasiga mansubligiga bir ishoradek taassurot beradi. Adib niyatining, estetik idealining cho‘ngligiga dalolat qiladi. Bizningcha, din va diniy ismlar inkori boshlangan yangi davrda adib qahramonlari nomini ham “o‘zbek tarixining hazmi ko‘targan qadar” olishga majbur bo‘ladi.

Kuzatishlar shunki ko‘rsatadiki, jurnal nusxasidagi ayrim keskin vaziyatga oid jumlar kitobda nisbatan yumshatiladi. Qiyos uchun ayrim misollarga murojaat qilamiz. Otabek Mirzakarim qutidor uyidagi mehmondorchilikda safar-sayohatlaridagi ko‘rgan-kechirganlaridan so‘zlaydi. “O‘rislarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy” holatlarini bayon etgach, bir o‘rinda aytadi: Maqolada: “Bizning idoramiz bu kungi tartibsizligi bilan keta berganida kofir qo‘lig‘a mahkum bo‘luvimizni o‘ylab butun avqotimni qayg‘u bilan o‘tquzmoqg‘a majbur bo‘ldim”.

Albatta, bunday farqlar, keskin vaziyatlarning yumshatilishi ijod psixologiyasi bilan, yozuvchining asar ustida ishlash jarayonidagi holatlari hamda qayta o‘qib ko‘rish paytidagi kayfiyatlari bilan bog‘liq ancha murakkab hodisalar sirasiga kiradi.

Adibning 1916 yilda yozilgan “Uloqda” hikoyasi o‘zbek realistik hikoyasining eng yaxshi namunalaridan biri hisoblanadi. Bundan so‘ng adib birin-ketin “Kalvak



Mahzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajang nima deydi”, “Obid ketmon” kabi nasriy asarlarini yaratadi.

Hikoya asosan tanqidiy ruhda bo‘lgani uchun “aksilinqilobiy harakat qilganlikda” ayblanib qamoqqa olinadi. Adib o‘zini mardonavor himoya qila oladi, shuning uchun qisqa muddatdan so‘ng ozod etiladi. SHundan so‘ng ham tanqidiy asarlar, hajviyalar yozishdan to‘xtamaydi.

Adibning iste’dodi-yu mahoratiga qanchalik havas qilmaylik, uning mudom qiyinchiliklardan iborat bolaligi-yu o‘smirligi, kasbiy faoliyati va xatto ayanchli ulimi aynan xotiralarda jonlanadi. U avlodlari - millatning qalbi uyg‘oq, farzandlari xotirasida barhayotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘., Mamajonov S. O‘zbek tili va adabiyoti, darslik, -T.; 2001.
2. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari,-T.;2006.
3. Jalolov A. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o‘zbek ma’rifatparvar-demokratik adabiyoti,- T.;1996.
4. Karimov N. va boshqalar, XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi,-T.;1999.
5. Qosimov B va boshqalar, Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti,- T.; 2004.